Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

O‘rta yosh davriga xos nutq diskursining lingvistik xususiyatlari

Ruzixon Usmanovna Axrorova*

Farg’ona davlat universiteti

✉ axrorova.prof@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘rta yosh davriga xos diskursning lingvistik, kommunikativ-pragmatik va kognitiv xususiyatlari tadqiq etiladi. O‘rta yosh davrida insonning ijtimoiy tajribasi, kasbiy faoliyati, oilaviy va jamiyatdagi mavqeyi hamda kommunikativ ehtiyojlarining nutqiy faoliyatga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘rta yosh vakillari diskursining leksik, grammatik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari, xususan, nutqning mantiqiy izchilligi, mazmuniy aniqligi, kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganligi, baholovchanlik va ijtimoiy tajribaga asoslanganligi yoritiladi. Shuningdek, mazkur yosh davri diskursida murojaat shakllari, modal birliklar, frazeologik vositalar, baholovchi leksika hamda kommunikativ strategiyalarning qo‘llanish xususiyatlari aniqlanadi. O‘rta yosh diskursining shakllanishida shaxsning hayotiy tajribasi, kasbiy bilimlari, ijtimoiy rollari va kommunikativ kompetensiyasi muhim omil sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari yoshga oid diskursning lingvistik xususiyatlarini aniqlash va uni boshqa yosh guruhlari diskursi bilan qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar

o‘rta yosh, yoshga oid diskurs, diskurs, nutq, kommunikativ-pragmatik xususiyatlar, kognitiv xususiyatlar, lingvistik xususiyatlar, nutqiy faoliyat, kommunikativ strategiya, kommunikativ taktika, leksik birliklar, baholovchanlik, modal birliklar, ijtimoiy tajriba, kommunikativ kompetensiya.

DOI: 10.5281/zenodo.23277854

Kirish.

Insonning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotidagi eng faol bo‘lgan yetuklik davriga hos diskursni tavsiflash uchun ko‘plab keng qamrovli ilmiy manbaalarga tayandik. Tilshunoslikda bu davrga oid diskurs shaxsning kommunikativ faoliyatidagi murakkablik, mavzu doirasining kengligi, tildan foydalanishdagi pragmatik moslashuvchanlik va nutqning ijtimoiy-madaniy kontekstga mosligi bilan izohlanadi. O‘rta yoshlilar diskursida kommunikativ strategiyalar muayyan sohalarda shakllangan tajriba, mutaxassislikka oid terminologiya va nutqning mantiqiy izchilligi bilan ajralib turadi. Mazkur yosh davriga mansub shaxslar diskursida kognitiv yetuklik alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u til birliklarining tanlanishida va ularni kontekstga mos ravishda joylashtirishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, o‘rta yosh davri diskursida pragmatik intensionallik yuqori darajada bo‘ladi, ma’lumotni aniq va qisqa yetkazish, tinglovchi reaktsiyasini oldindan hisobga olish, kontekstga mos uslub tanlash kabi belgilar kuzatiladi. O‘rta yosh davrida shaxs til vositalarini nafaqat ona tilida, balki xorijiy tillarda ham samarali qo‘llay oladi, professional muloqotning global me’yorlariga moslasha oladi. O‘rta yosh davri diskursida argumentativ nutq rivojlanadi, dalillarda tizimlilik yuqori bo‘ladi, mantiqan asoslash va o‘z fikrini himoya qilish qobiliyati yuksak bo‘ladi. Shuningdek, o‘rta yosh diskursida interaktivlik va kooperativlik tamoyillari kuchli bo‘ladi.

METODLAR

Tadqiqotda o‘rta yosh davriga xos nutq diskursini kompleks o‘rganishga imkon beruvchi bir qator lingvistik metodlardan foydalanildi.

Tavsifiy metod orqali o‘rta yosh vakillarining nutqida kuzatiladigan leksik, grammatik, sintaktik va pragmatik birliklar tavsiflandi.

Kontekstual tahlil metodi yordamida leksik va modal birliklarning muayyan kommunikativ vaziyatdagi funksional xususiyatlari aniqlandi.

Semantik tahlil asosida baholovchi leksika, emotsional-ekspressiv birliklar va ma’no komponentlarining nutqdagi vazifalari o‘rganildi.

Pragmatik tahlil orqali kommunikativ maqsad, strategiya va taktikalar, shuningdek, suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning nutqda ifodalanishi tadqiq qilindi.

Kognitiv tahlil vositasida o‘rta yosh vakillarining hayotiy va kasbiy tajribasi bilan bog‘liq konseptual birliklar hamda ularning nutqdagi ifodasi o‘rganildi.

Qiyosiy metod yoshga oid diskursning boshqa yosh guruhlariga xos nutqiy xususiyatlardan farqli jihatlarini aniqlash uchun qo‘llanildi.

Tadqiqot materiali sifatida o‘rta yosh vakillarining og‘zaki va yozma nutq namunalari, badiiy va publitsistik matnlardagi dialogik birliklar, intervyu va kommunikativ vaziyatlarda qo‘llangan nutqiy birliklardan foydalanish mumkin. Tahlil jarayonida leksik birliklar, modal vositalar, murojaat shakllari, baholovchi birliklar, frazeologik vositalar hamda kommunikativ strategiya va taktikalar asosiy tahlil birliklari sifatida belgilandi.

NATIJALAR

O‘rta yoshlilar diskursi fikrni izchillik bilan ifodalash, mantiqiy dalillar keltirish va ijtimoiy-madaniy kontekstga moslashish qobiliyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Diskurs ularning tajribasi, bilim darajasi va madaniy oriyentatsiyasi mevasidir.

1. Lingvistik xususiyatlar: Sintaksis (gaplar uzunroq, murakkab qo‘shimchalar va bog‘lovchilar bilan boyitilgan); Leksik boylik (sinonimlar, antonimlar, professional va madaniy kontekstga oid leksik birliklar faol ishlatiladi); Stilistika va registerlar (nutq rasmiy yoki norasmiy, empatik yoki argumentativ bo‘lishi mumkin, vaziyatga moslashadi).

2. Kommunikativ-pragmatik xususiyatlar: Mantiqiy dalil keltirish (o‘rta shaxslar fikrlarini asoslab beradi va xulosalarini mantiqiy bog‘laydi); Ijtimoiy moslashuv (tinglovchining bilish darajasi va mavzuga qiziqishini hisobga oladi); Refleksivlik (o‘z fikrini tanqidiy baholay oladi va nuqtai nazarini izohlaydi).

3. Diskurs shakllari: Argumentativ diskurs (muhokama yoki munozara shaklida); Ijtimoiy-madaniy diskurs (hikoya, tarixiy voqea yoki shaxsiy tajriba); Kasbiy yoki lmiy diskurs (ish yoki ilmiy faoliyatga oid maxsus leksika bilan).

4. Kognitiv komponentlar: Kritik fikrlash (manbalarni solishtirish va farqlarni aniqlash); Abstrakt tushuncha (nazariy g‘oyalarni tushunish va ifodalash); Muammoni hal qilish (nutq orqali strategik reja tuzish va qarorlar qabul qilish).

Fransuzcha, o‘zbekcha turli diskurslarga oid misollar beramiz.

- Argumentativ diskurs**:** – “*Selon moi, l’éducation est la clé du développement d’une société, car elle forme des individus capables de penser de manière critique et responsable*” – bu jumla yetuklik yoshidagi shaxsning mantiqiy, izchil fikrini va argumentatsion nutqini namoyon qiladi; “*Menimcha, ta’lim jamiyat rivojining asosiy kalitidir, chunki u tanqidiy fikrlay oladigan va mas’uliyatli shaxslarni shakllantiradi* ” – mantiqiy izchillik va argumentativ diskurs ; “*На мой взгляд, образование является ключом к развитию общества, поскольку оно формирует личности, способные мыслить критически и действовать ответственно*” – Bu jumlada modal ifoda (на мой взгляд) subyektiv pozitsiyani bildirsa, diskurs markeri (поскольку) sabab-oqibat munosabatini ko‘rsatib, yetuk yoshdagi shaxsga xos mantiqiy va izchil argumentatsiyani ta’minlaydi; “*In my opinion, education is the key to the development of society because it shapes individuals who are capable of critical and responsible thinking*” – ushbu nutq birligida ham baholovchi kirish konstruksiyasi (in my opinion) va sababni ifodalovchi bog‘lovchi (because) orqali fikrning argumentativ tuzilishi, mantiqiy izchilligi hamda yetuk shaxsga xos tahliliy yondashuv aks etadi.
- Ijtimoiy-madaniy diskurs: – “*Je me souviens de mon premier voyage à Paris; c’était une expérience qui a profondément influencé ma vision du monde.*” – Shaxsiy tajriba asosida madaniy kontekstga mos

hikoya; "*Men birinchi marta Samarqandga borganimni eslayman, juda katta ta'surotlar qoldirgan edi*." –Shaxsiy tajriba va madaniy kontekst; *"Я помню свою первую поездку в Санкт-Петербург; это был опыт, который существенно повлиял на моё мировоззрение"* – ushbu misolda xotiraga murojaat qiluvchi konstruktsiya (я помню) shaxsiy tajribani faollashtiradi, madaniy makon nomi esa (Sankt-Peterburg) nutqni ijtimoiy-madaniy kontekst bilan boyitadi. Natijada shaxsiy kechinma va madaniy tajriba o'zaro uyg'unlashgan diskurs yuzaga keladi; "*I remember my first trip to London; it was an experience that deeply influenced my worldview*" – Bu jumlada ham retrospektiv ifoda (I remember), shuningdek, madaniy jihatdan ahamiyatli makon (London) orqali shaxsning individual tajribasi global madaniy makon bilan bog'lanadi va ijtimoiy-madaniy diskursning asosiy belgilarini namoyon qiladi. O'zbek, fransuz, rus va ingliz tillaridagi mazkur misollar ijtimoiy-madaniy diskursning universal xususiyatlarini, shaxsiy xotira, madaniy makon va dunyoqarashning shakllanishi izchil va mantiqiy tarzda aks ettiradi. Bu esa yetuk yoshdagi shaxslar nutqida madaniy tajribaning diskursiv ifodalanishi muhim lingvopragmatik omil ekanini ko'rsatadi.

- Kasbiy yoki ilmiy diskurs: – "*L'analyse des données statistiques permet de mieux comprendre les tendances économiques actuelles*." (internetdan olindi) – ilmiy va professional kontekstga mos diskurs, terminologiya va izchillik bilan; "*Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hozirgi iqtisodiy tendensiyalarni yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi*."(internetdan olindi); "*Анализ статистических данных позволяет глубже понять современные экономические тенденции*" (internetdan olindi). Ushbu jumlada ilmiy terminlar (анализ, статистические данные, экономические тенденции) va mantiqiy sabab-oqibat munosabati (позволяет понять) orqali professional-analitik diskurs shakllanadi. Nutq neytral va obyektiv bo'lib, ilmiy matnlarga xos xususiyatlarni namoyon etadi; "*The analysis of statistical data makes it possible to better understand current economic trends*" (internetdan olindi). Bu misolda ham terminologik birliklar (analysis, statistical data, economic trends) hamda rasmiy-neytral uslub ilmiy va professional muloqotga xos diskursiv belgilarni ifodalaydi.

MUHOKAMA

O'zbek, fransuz, rus va ingliz tillaridagi ushbu misollar kasbiy (ilmiy) diskursning umumiy xususiyatlarini (obyektivlik, terminologik aniqlik va mantiqiy izchillik) namoyon qilib, ilmiy nutqning tillardagi umumiy jihatlarini ifodalaydi.

O'rta yoshlilar diskursining asosiy belgilarini inobatga olgan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tematik yo'naltirilganlik (mavzular, ko'pincha, o'tmish voqealari, hayotiy saboqlar, milliy an'analar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, *urush yillari, tarixiy voqealar, qishloq hayoti, mehnat faoliyati* haqidagi hikoyalar).
2. Lingvistik konservatizm (arxaizmlar, sheva, eskirgan leksik birliklar va frazeologizmlarning faol qo'llanishi).
3. Kognitiv-emotsional boylik (hikoyalar, ko'pincha, tafsilotlarga boy, hissiy jihatdan kuchli bo'ladi, eslash jarayonida xotira va emotsiyalar o'zaro uyg'unlashadi.
4. Pragmatik vazifalar (nasiha qilish, tajriba ulashish, ogohlantirish yoki milliy-madaniy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan nutq strategiyalari ustuvorlik qiladi).
5. Diskursiv tuzilmalar (hikoya shaklidagi monologlar, o'xshatishlar, maqol-matallarning ko'p ishlatilishi).
6. Madaniy kod (nutqda milliy-madaniy identitetni ifodalovchi lingvokulturologik belgilar - urf-odatlar, dinga oid tushunchalar, marosimlarga oid terminlarning faol qo'llanishi).

Misol (o'zbek tilida): *"Ehh o'g'lim, yoshligiimizda bizni televizorimiz ham yo'q edi. Qishloqqa elektr ham kech kelgan, tong saharda turardik, chorvani boqish uchun saharlab yaylovga ketardik. Hamma bir-birini tanirdi, mehmon kelsa, qo'shnilar birga choy damlab, dasturxon yozar edi."(*so'zlashuvdan)

Misol (fransuz tilida): *"Tu sais, dans mon temps, on n'avait pas d'ordinateur. On écrivait des lettres à la main, et on attendait des semaines pour recevoir une réponse. Mais c'était plus chaleureux, plus humain…"* (so'zlashuvdan)

Misol (rus tilida): “*Сынок, в наше время у нас даже телевизора не было. В деревне электричество появилось поздно, мы вставали рано утром и занимались хозяйством. Все друг друга знали, и если приезжали гости, соседи собирались вместе, ставили самовар и долго разговаривали*” (internetdan olindi).

Misol (ingliz tilida): “*You know, in my days we didn’t even have a television. Electricity came late to our village, so we used to wake up early and take care of the livestock. Everyone knew each other, and when guests arrived, the neighbors would gather together, make tea, and share long conversations*” (internetdan olindi).

O‘rta yosh davri odatda 40-60 yosh oralig‘ini qamrab olib, shaxsning ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotida barqarorlik, ma’lum maqsadlarga erishish va tajriba to‘plash bosqichini ifodalaydi.

1. Psixologik-kognitiv xususiyatlar (Maqsadga yo‘naltirilganlik – nutq, odatda, aniq rejalarga, amaliy yechimlarga yo‘naltiriladi); Muvozanat va ishonchlilik – gapirish jarayonida hissiy portlashlar kam, dalillashlar va asoslashlar ko‘proq; Metaforik va intertekstual boylik – tajriba ortishi bilan nutqda turli madaniy va adabiy ishoralar ko‘payadi).

2. Ijtimoiy-funksional xususiyatlar (Kasbiy diskursning ustuvorligi – bu yoshda ish faoliyati asosiy mavzulardan biri bo‘lib, nutqda terminologik qatlam kengayadi); Oilaviy va tarbiyaviy mavzular – ota-ona sifatida bolalar tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar nutqning muhim qismini tashkil etadi; Hamkorlikka yo‘naltirilgan muloqot – suhbatlarda sheriklik, maslahatlashuv va kelishuv muhim o‘rin tutadi).

3. Til birliklari va diskurs strategiyalari (Murakkab sintaktik tuzilmalar – ko‘proq sabab-oqibat bog‘lanishli, izohli gaplar ishlatiladi; Modal birliklarning faolligi – “*kerak*”, “*mumkin*”, “*lozim*” kabi modal vositalar maqsad va majburiyatni ifodalash uchun keng qo‘llanadi; Diplomatik nutq – bahs yoki tanqidda to‘g‘ridan to‘g‘ri qarama-qarshilikdan qochish, yumshatuvchi vositalardan foydalanish).

4. Madaniy farqlar (fransuz, rus, ingliz va o‘zbek tillari misolida). Tizimli tillarda shakllangan diskurslar milliy madaniyat, ijtimoiy qadriyatlar va kommunikativ me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu holat nutqiy xulq-atvorda yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida muloqot jarayonida hurmat va ijtimoiy yaqinlikni ifodalovchi birliklar ustuvor ahamiyat kasb etadi. “*Siz*”, “*marhamat*”, “*iltimos*” kabi leksik vositalar suhbatdoshga nisbatan xurmatni bildiradi.

Shuningdek, maqol-matallarning faol ishlatilishi nutqda axloqiy-didaktik mazmun kasb etadi: “*Katta kelsa to‘riga, kichik kelsa xizmatga*”. O‘zbek tilidagi o‘rta yoshga hos diskursda oilaviy munosabatlar, qarindosh-urug‘lik aloqalari hamda sulolaga oid maslahatlar ochiqlik bilan muhokama qilinishi kuzatildi. O‘rta yosh diskursining fransuz tilidagi asosiy xususiyati sifatida, shaxsiy fikr va tajribani ochiq ifodalash ajralib turadi. “*Selon moi…*”, “*Selon mon expérience…*” kabi iboralar orqali subyektiv pozitsiya aniq belgilanishi kuzatiladi. G‘arb madaniyatiga hos bo‘lgan muhokama va bahs yuqori baholanadi, shu sabab, suhbatda argumentativlik va mantiqiy asoslash muhim rol o‘ynaydi: “*Je ne suis pas d’accord, mais je comprends votre point de vue*” (Internetdan olindi).

Rus tilida muloqot, ko‘pincha, emotsional ochiqlik va bahsga moyillik bilan tavsiflanadi. Rus diskursida shaxsiy munosabatlar va hissiy holatni ifodalovchi birliklar ko‘p ishlatiladi: “*Я считаю, что это несправедливо*”, “*Честно говоря…*” (Internetdan olindi). Shu bilan birga, rus nutqida ijtimoiy mavqega qarab rasmiy va norasmiy murojaat shakllari (“*вы*” / “*ты*”) qat’iy farqlanadi, bu esa madaniy va pragmatik me’yorlarning muhim ko‘rsatkichidir.

Ingliz tilida esa diskurs, asosan, muloyimlik (politeness) va shaxsiy hududni saqlash tamoyillariga asoslanadi. “*Please*”, “*Excuse me*”, “*Would you mind…?*” kabi ifodalar muloqotning muvozanatli va konfliktlardan holi bo‘lishini ta’minlaydi. Ingliz diskursida shaxsiy fikr bildirishda yumshatuvchi modal birliklar keng qo‘llanadi: “*I think…*”, “*It seems to me that…*”. Oilaviy mavzular mavjud bo‘lsa-da, ular, ko‘pincha, chegaralangan va ehtiyotkorlik bilan muhokama qilinadi, bu ingliz madaniyatiga xos individualizm va shaxsiy hayot daxlsizligini aks ettiradi.

5. O‘rta yoshlilar diskursining asosiy vazifalari: Kasbiy ma’lumot va tajribani uzatish; oilaviy va ijtimoiy masalalarni muhokama qilish; muammoni amaliy yo‘l bilan hal etish; hamkorlik va kelishuvni ta’minlash; Shaxsiy va ijtimoiy imidjni mustahkamlash.

XULOSA

Mazkur diskurs turida ishlatiladigan til vositalarida nutqning mantiqiy izchilligi, aniqligi va kommunikativ jihatdan samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, grammatik konstruktsiyalar, murakkab sintaktik tuzilmalar ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari, qo‘shma gaplar, ergash gapli konstruktsiyalar va izohli birliklar fikrning sabab-oqibati, shart-natijasi hamda izchillik munosabatlarini keng ifodalaydi. Bu holat so‘zlovchining rivojlangan kognitiv faoliyati va nutqni ongli ravishda rejalashtirish qobiliyatini aks ettiradi. Shuningdek, diskursda mavzuga mos terminlar va frazeologik birliklarning faol qo‘llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni aytish joizki, terminologik birliklar diskursdagi nutqning semantik jihatdan aniqligini oshirsa, frazeologik birliklar esa fikrni to‘liq obrazli va ta’sirchanligini ifodalashga xizmat qilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Karimov B. Til va shaxs: yosh davrlarining nutqiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2019. –B.29.

[2] Normatov A. Argumentativ nutq va mantiqiy fikrlash. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2017. 2020. –B.54.

[3] Ochilidyev S. Madaniyatlararo muloqot nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti. 2020. –B.79.

[4] Rahimov M. Pragmatik lingvistika asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2021. –B.63.

[5] Qodirova D. Kognitiv lingvistika va nutq tahlili. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 2018. –B.43.

[6] Yo‘ldosheva N. Interaktiv muloqot va zamonaviy lingvistik yondashuvlar. – Buxoro: BuxDU nashriyoti,2022. –B.41.